



## “EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING ADABIYOTDAGI AKS SADOSI”

Mirzoyeva Shaxnoza Murodullayevna

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 2-son Poletexnikumi

**Annotatsiya** Ushbu maqolada adabiy asarlarda ekologik muammolarning badiiy tasviri va ularning ijtimoiy ahamiyati o‘rganilgan. Jamoatchilik etiboridagi dolzarb muammolar jumladan iqlim o‘zgarishi, suv va havo ifloslanishi, o‘rmonlarning kesilishi chiqindilar ko‘payishi kabi muammolarning adabiyotdagi, she’riyatdagi ekologik jihatlari ham yoritib berilgan. Maqola adabiyotning ekologik ongini shakllantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishda tutgan o‘rni haqida muhim xulosalar beradi.

**Kalit so‘zlar:** ekologik muammo, iqlim o‘zgarishi, suv va havo ifloslanishi, o‘rmonlarning kesilishi, chiqindilar ko‘payishi adabiyot, she’riyat, ekologik ong.

**Annotation** This article studies the artistic depiction of environmental problems in literary works and their social significance. The ecological aspects of current public issues, including climate change, water and air pollution, deforestation, and waste generation, are also highlighted in literature and poetry. The article draws important conclusions about the role of literature in the formation of environmental awareness and environmental protection.

**Keywords:** environmental problems, climate change, water and air pollution, deforestation, increased waste, literature, poetry, environmental awareness.

**Аннотация** В статье исследуется художественное изображение экологических проблем в литературных произведениях и их социальная значимость. Экологические аспекты современных общественных проблем, включая изменение климата, загрязнение воды и воздуха, вырубку лесов и образование отходов, также освещаются в литературе и поэзии. В статье делаются важные выводы о роли литературы в формировании экологического сознания и защите окружающей среды.

**Ключевые слова:** : экологические проблемы, изменение климата, загрязнение воды и воздуха, вырубка лесов, увеличение отходов, литература, поэзия, экологическое сознание

**Kirish.** Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo jamoatchiligi e’tiboridagi eng dolzarb masalalardan biridir. Iqlim o‘zgarishi, suv va havo ifloslanishi, o‘rmonlarning kesilishi, chiqindilar ko‘payishi kabi muammolar insoniyat hayot tarzini jiddiy o‘zgartirmoqda.[1] Bu muammolar nafaqat ilm-fan va siyosat sohasida, balki adabiyotda ham o‘z aksini topmoqda. Zero, adabiyot –chuqur ijtimoiy-g‘oyaviy mazmunga ega badiiy estetik jihatdan o‘quvchi tafakkurini, dunyoqarashini va atrof muhitga bo‘lgan ehtiyyotkorona munosabatini va ekologik madaniyatni rivojlantirishda xizmat qiladi.[2] Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar, atrof-muhit muammolari chuqur tahlil qilinadi. Klassik va zamонавијада adabiyotda inson va tabiat o‘rtasidagi

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

munosabatning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinib, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Chingiz Aytmatov va O'tkir Hoshimov, Rauf Parfi va Zulfiya kabi shoir va yozuvchilarimizning asarlarida ekologik mavzuning aks ettirilishi misol sifatida keltirilgan. Xalq og'zaki ijodida tabiat go'zalligi, uni asrash zarurati haqida ko'plab ertaklar, maqollar, rivoyatlar yaratilgan.[4] Bugungi yozuvchi va shoirlarimiz atrof-muhit muammolarini turli badiiy vositalar orqali tasvirlab, inson va tabiat uyg'unligini tiklash g'oyasini ilgari surishmoqda. Omon Muxtor, Xayriddin Sultonov, Abdusaid Ko'chimov, Hamza Imomberdiyev kabi ijodkorlarning asarlarida tabiatning buzilgan holati uning inson hayotidagi ahamiyati va ekologik muammolar tasvirlangan. Masalan, maktabgacha ta'lif va maktablarda tozalikka, gigiyenaga rioya qilish, suvdan oqilona foydalanish, chiqindilarni chiqindi qutilarga tashlashlik, tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish kabi ekologik madaniyatni o'sib kelayotgan avlodda shakllantirish maqsadida ushbu ta'lif muassasalarida tarbiya, tabiiy fanlar, biologiya, geografiya fanlar o'qitiladi. Professional ta'lif muassasalarida ona tili, adabiyot, biologiya, geografiya va boshqa o'qitiladi. Ayniqsa 10-sinf Ona tili darsligida kiritilgan 15- yoshli Greta Tunberkning odamlarni global iqlim o'zgarishlariga masuliyat bilan qarashga chorlaydi, Muhammad Yusufning orol dengizi haqidagi she'ri, Qizil kitob haqida keltirib o'tilgan jumlalar buning yaqqol misoli hisoblanadi. [4] Hozirga kelib yadro muammosiga haroratning oshishi, Arktikadagi dengiz muzliklari deyarli yarim hajmidan ayrilganini keltirib o'tmoq joiz. Qashshoqlik, qurg'oqchilik, kuchli shamollar va suvsizlik kabi ofatlar zilzilaga nisbatan uch marta ko'proq sodir bo'layapti. Bularning bari iqlim o'zgarishiga bog'liq hodisalardir. Bu muammolarni oldini olish uchun ekologik fojialar haqida yozilgan hikoya va romanlar o'quvchilarni tabiatni asrashga, unga nisbatan mas'uliyatli bo'lishga chorlaydi. Bunday asarlar yoshlarning ekologik ongini shakllantirishda, ularda tabiatga mehr-muhabbat uyg'otishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ekologik muammolar – faqat ilmiy yoki iqtisodiy masala emas, balki ma'naviy va madaniy hodisadir. Adabiyot bu borada inson ongiga ta'sir etuvchi eng kuchli vosita bo'lib, tabiatga muhabbat va ekologik mas'uliyatni yosh avlod qalbiga singdirishga xizmat qiladi. Shu sababli har bir kitobxon adabiyot orqali tabiatni sevish, uni asrash va kelajak avlodga sog'lom ekotizim qoldirish mas'uliyatini chuqr his etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1 . Karimov, Sh."O'zbek adabiyotida tabiat tasviri". Adabiyotshunoslik ilmiy jurnali, №2, 2018.
- 2.Mengliyev B.,SH.Abduraxim,K.Mavlonova,M.Siddiqov,S.Atoyeva „Ona tili 10 sinf uchun darslik,,Toshkent;2022
- 3.. Mirzayeva Z.I., Djalilov K.Q.,Adabiyot 10- sinf darslik.Toshkent ;Respublika ta'lif markazi,2022
4. Xolmurodov O. "Ekologik muammolarni badiiy aks ettirishning usullari". Toshkent: Adabiyotshunoslik ilmiy markazi, 2021

